



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O‘ZBEKISTONDAGI DINLAR TA‘LIMOTIDA TINCHLIK VA BAG‘RIKENGLIK MASALALARI

Jaxangirova Muyassarkhon Anvarovna
Oriental University, o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda dinlararo muloqot madaniyatining tinchlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashdagi o‘rni yoritiladi. Bag‘rikenglik an‘analarining tarixiy ildizlari, qadimiy e‘tiqodlar va tangrichilikdan tortib islom davrigacha bo‘lgan jarayonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlatning dinlararo totuvlikni ta‘minlashga qaratilgan siyosati, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va amaliy tajribalari ko‘rib chiqiladi. Dinlararo muloqotning ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik jamiyati rivojiga ijobiy ta‘siri asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Dinlararo muloqot, diniy bag‘rikenglik, madaniy xilma-xillik, sabr- toqat, tabaqalanish, ijtimoiy tenglik, o‘zaro hamjihatlik.

ВОПРОСЫ МИРА И ТОЛЕРАНТНОСТИ В РЕЛИГИОЗНОМ ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Джахангирова Муяссархон Анваровна
Oriental University, преподаватель

Аннотация

В статье раскрывается роль культуры межрелигиозного диалога в Узбекистане в укреплении мира и религиозной толерантности. Анализируются исторические корни традиций терпимости — от древних верований и тенгрианства до исламского периода. Рассматриваются государственная политика, конституционно-правовые основы и практический опыт обеспечения межконфессионального согласия. Обосновывается позитивное влияние межрелигиозного диалога на социальную стабильность и развитие гражданского общества.

Ключевые слова: межрелигиозный диалог, религиозная толерантность, культурное разнообразие, терпимость, стратификация, социальное равенство, взаимное согласие.

ISSUES OF PEACE AND TOLERANCE IN THE EDUCATION OF RELIGIONS IN UZBEKISTAN

Djakhangirova Muyassarkhon Anvarovna
Oriental University, Teacher

Abstract

The article highlights the role of interreligious dialogue culture in Uzbekistan in strengthening peace and religious tolerance. It analyzes the historical roots of tolerance traditions, from ancient beliefs and Tengrianism to the Islamic period. The study also examines the state policy, constitutional and legal foundations, and practical experience aimed at ensuring interfaith harmony. The positive impact of interreligious dialogue on social stability and the development of civil society is substantiated.

Keywords: interreligious dialogue, religious tolerance, cultural diversity, patience, social stratification, social equality, mutual harmony.

O'zbekiston qadimdan turli dinlar, millatlar va madaniyatlar uyg'un yashab kelgan hudud sifatida tanilgan. Bu yerda islom, nasroniylik, buddizm, yahudiylik kabi dinlar o'z davrida madaniy hayot va ma'naviyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Mustaqillik yillarida mamlakatda din erkinligi, vijdon erkinligi hamda konfessiyalararo totuvlik davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi.

Bugungi globallashuv davrida turli diniy oqimlar, g'oyaviy qarama-qarshiliklar fonida tinchlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat masalalari yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Shu sababli O'zbekiston hududidagi dinlar ta'limotida tinchlik va bag'rikenglik g'oyalarining mazmuni, ularning jamiyat barqarorligiga ta'siri hamda diniy-ma'naviy hayotdagi o'rni ilmiy jihatdan o'rganilishi zarurdir.

Zardushtiylik eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Mavorounnahr hozirgi O'zbekiston hududida rivojlangan. Markaziy Osiyoda Zardushtlik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik va islom kabi diniy e'tiqodlarning kesishgan markazi bo'lgan. Islomning kirib kelishi bilan bu diniy oqimlar o'zgarib, uyg'unlashgan. Zardushtiylik Markaziy Osiyo tarixidagi eng qadimgi dinlardan biridir. Zardushtiylikning asosiy qadiryatlari diniy bag'rikenglik va o'zaro hurmatni muhim tamoyillari sifatida qabul qiladi. Bu dinning asosiy tamoyillaridan biri yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash bo'lsa-da, zardushtiylikda diniy va madaniy xilma-xillikka hurmat va bag'rikenglik g'oyalari ham o'z o'rniga ega. Zardushtiylikda diniy bag'rikenglik g'oyalarini uchratish mumkin. Barcha insonlar, etnik va diniy kelib chiqishidan qat'iy nazar, teng va hurmatga loyiqdir. O'z o'gitlarida barcha odamlarni bir xil yomonlikdan saqlanishga va yaxshilik yo'lida yurishga chaqirgan. Bu o'z navbatida, diniy yoki madaniy xilma-xilliklarni inobatga olmasdan, barcha insonlarni bir-biriga teng deb hisoblashni anglatadi. Odamlar o'zlarining diniy yo'llarini tanlashda erkindir. Zardushtning o'gitlarida insonlar o'z xohishlariga ko'ra yaxshilikni tanlashi mumkin, va bu jarayonda biror dinni tanlashda yoki tanlamaslikda hech qanday majburiyat yo'q. U diniy erkinlikni ta'kidlaydi va turli diniy tizimlarga hurmat ko'rsatadi.

Zardushtiylik diniy bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan holda insonlarga, ularning diniy e'tiqodiga yoki etnik guruhidan qat'iy nazar adolatli va teng munosabatda bo'lish muhim hisoblangan. Uning asosiy ta'limotlarida boshqa dinlar yoki madaniyatlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishni ta'kidlaydi. Tarixan ko'pincha boshqa dinlar va madaniyatlar bilan o'zaro hurmat va bag'rikenglikni saqlashgan, bu esa dinning umumiy xarakterini tashkil etadi. Zardushtiylikda tabiat va uning barcha tirik mavjudotlariga nisbatan katta hurmat bor. Tabiatdagi barcha mavjudotlar, insonlar, hayvonlar, o'simliklar bir butunlikni tashkil qiladi va ular bir-biriga qarshi turmasdan tinch-totuv yashashlari kerak. Shu tarzda zardushtiylikda diniy bag'rikenglik, hurmat va sabr-toqat asosiy qadriyatlar bo'lib, bu g'oyalar boshqa madaniyatlar va dinlarga nisbatan ochiqlik va bag'rikenglikni rivojlantiradi (Abu Rayhon Beruniy., 1968., p. 252).

Keyinchalik I asr -III asr Buddizimning O'zbekistonga kirib kelishining eng muhim bosqichi Kushonlar imperiyasiga to'g'ri keladi. Kushonlar o'z imperiyalarini O'rta Osiyo, Shimoliy Hindiston va Forsning janubiy qismlarida kengaytirganlarida, buddaviylikni o'z davlatining rasmiy dinlaridan biri sifatida qabul qildilar. Kushonlar imperiyasi Markaziy Osiyoda, Samarqand, Buxoro, Termiz kabi yirik shaharlar orqali buddaviylikning tarqalishida muhim rol o'ynadi. Ushbu imperiya davrida buddaviylikni targ'ib qilgan bir qancha monastirlar va ibodatxonalar qurildi (I. V. Starostin., 1983, p. 45).

Buddaviylikda diniy bag'rikenglik g'oyalari asosan insonlarning bir-biriga hurmat, mehr-oqibat va o'zaro sabr bilan qarashlarini ta'kidlaydi. Budda o'rgatgan asosiy tamoyillaridan biri - barcha mavjudotlarga nisbatan shafqat va rahm-shafqatni ko'rsatishdir. U o'rgatgan asosiy tamoyillardan biri bu tinchlikni saqlashdir. U barcha mavjudotlarga mehr-shafqat bilan yondashishni o'rgatgan va bu har bir inson

uchun, barcha etnik guruhlar va dinlarga nisbatan hamda fikrlar va qarashlarga hurmatni ta'kidlagan. Shu bilan birga barcha mavjudotlarga bir xil rahm-shafqat va hurmat bilan qarashni o'rgatadi. Bu odatda, jamoaviy birlik va diniy yoki madaniy farqlarga qaramay, hamma insonlarni

teng huquqlik deb qabul qilishni anglatadi. Budda hayotdagi og'irliklarni va sinovlarni o'ziga xos tarzda yengish orqali odamlar o'zini o'zgartirishi va yaxshilashini ko'rgan. Bu har bir insonning o'ziga xos yo'li borligini va bu yo'llar bir-biriga qarshi bo'lmashligi kerakligini anglatadi. Shu tarzda, diniy yoki ma'naviy farqlarni hurmat qilish kerak. Buddaviylikda odatda boshqa dinlarga yoki dunyoqarashlarga hurmat ko'rsatish va ularni qabul qilish muhim. O'zining o'gitlarida hamma dinlar o'zining to'g'ri yo'lini tanlashi mumkinligini va bu yo'llar orasidagi farqlarni barchaning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda qarash kerakligini ta'kidlagan. Bularning barchasi buddaviylikda diniy bag'rikenglikning asosiy prinsiplari bo'lib, ular odamlarni o'zaro hurmat va sabr-toqat bilan yashashga undaydi (T. S. Kiyatani., 2007., p. 56).

V asrda Eronda Sosoniylar davrida rivojlangan diniy va ijtimoiy harakat bo'lib, unga Mazdak ismli diniy yetakchi asos solgan. O'sha davrlarda Sosoniylar imperiyasining boshqaruv tizimida juda keskin sinfiy farqlar mavjud edi. Hukumdorlar, amaldorlar, ruhoniylar va boshqa yuqori tabaqalar, dehqonlar, hunarmandlar, qullar bilan taqqoslaganda juda qudratli bo'lganlar. Yuqori tabaqa vakillari o'z manfaatlarini himoya qilishgan va oddiy fuqarolarga nisbatan tabaqalanishlarga bo'lingan. Mazdaklik harakati Sosoniylar imperiyasining hududidan tashqari Markaziy Osiyoga, Xorazm va Balx kabi hududlarga tarqalgan. Bu ta'limotning asosiy g'oyalari o'sha davrda iqtisodiy va ijtimoiy adolatsizliklarga duch kelgan jamoalar tomonidan ijtimoiy tenglik va mulkni bo'lishish, jamiyatda sinfi tabaqalanishlarga qarshi kurashish va ijtimoiy tenglik o'rnatish uchun ko'plab jamoalar tomonidan qabul qilindi. Bu yo'nalish Markaziy Osiyoga aniq qachon kirib kelganini ma'lum emas, lekin uning ta'siri eroniylar hududidan chiqib, mintaqaviy siyosat va ijtimoiy strukturalarda aks etdi (Muhammad Nazarovich Shaheenov., 1970., p. 56).

USLUBLAR

Yahudiylik Markaziy Osiyoga kamida 2500 yil avval, ya'ni Ahamoniylar imperiyasi davrida, Bobillik surgunidan keyin kirib kelgan.

Eng qadimgi yahudiy jamoalar Baqtriya, So'g'd va Marg'iyona hududlarida shakllangan, keyinchalik esa Buxoro yahudiylari shaklida davom etgan.

Keyinchalik Markaziy Osiyoga qadimiy dinlardan bo'lmish yahudiylik kirib keldi. Yahudiylikning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va mintaqadagi tarixi haqida ma'lumotlar turli manbalarda mavjud. Yahudiylar Markaziy Osiyoga ilk bor eradan avvalgi VI asrda Fors imperiyasi davrida kelgan. Keyinchalik bu hududda ular uzoq vaqt yashab, o'z jamoalarini shakllantirishgan. Miloddan avvalgi VI asrda Bobilliklar Yahudo shohligini bosib olib, yahudiylarning katta qismini Bobillikka surgun qilgan. Bu davrda Forsning Bobil imperiyasi miloddan avvalgi 539-331- yillar kengayib, yahudiylar Bobilni zabt etilishi natijasida Fors hududlariga tarqalgan. Keyinroq Bobilliklarni Eron Ahamoniylar imperiyasi Kir II davrida bosib olgan va bu imperiya o'z tarkibiga Bobil, Eron, O'rta Osiyo hududlarini ham kiritgan. Yahudiylarning ayrim qismi imperiya ichida sharqqa - Eron, Xuroson, So'g'd, Baqtriya kabi hududlarga ko'chib borgan. Ba'zi manbalarda o'sha davrdanoq Baqtriya va Marg'iyona hozirgi Afg'oniston va Turkmaniston hududlarida yahudiy diasporasi mavjud bo'lganligi aytiladi. Yahudiylar Bobil imperiyasida qolgan qismlaridan biri bo'lib, forslar tomonidan qo'llab-quvvatlangan va uzoq vaqt davomida bu hududlarda yashab kelgan. Yahudiylar Fors imperiyasining katta qismi bo'lgan hududlarga tarqalib, ular orasida Samarqand,

Buxoro, Termiz kabi shaharlarda yashagan. Ular nafaqat savdo bilan shug'ullanishgan.

Sosoniylar davrida Miloddan avvalgi IV- III asrlarda Iskandar Zulqarnayn yurishlaridan so'ng, yahudiylar O'rta Osiyo hududlarida savdo-sotiq, zargarlik, tibbiyot va ma'muriyat sohalarida faol bo'lishgan. Sosoniylar davrida III -VII asrlar yahudiylar Eron va unga tutash viloyatlarda, shu jumladan Xuroson va So'g'dda yashagan. Talmud davrida "Xuroson yahudiylari" haqida yozuvlar uchraydi.

Islom davrida VIII - XII asrlarda Markaziy Osiyoda islom hukmron bo'lsa-da, yahudiy jamoalari Buxoro, Samarqand, Marv, Balx kabi shaharlarida yashab qolishgan. Ular savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullangan, keyinchalik bu jamoalar "Buxoro yahudiylari" deb atalgan.

Buxoro yahudiylari o'ziga xos tilda Buxoriy tili yahudiy-tojik lahjasida so'zlashgan.

Markaziy Osiyodagi yahudiylar ko'pincha mintaqada yashovchi boshqa millat va diniy guruhlar bilan integratsiyalashgan, lekin o'z diniy an'analari va madaniy meroslarini saqlab qolganlar. Ular o'z diniy tashkilotlarini yaratgan, sinagogalar va madaniy markazlarni barpo etgan. Yahudiylarning diniy marosimlarini amalga oshirishda o'z an'analari asosida yashagan. Samarqand, Buxoro, Termiz kabi shaharlarda yahudiylar ko'plab diniy tadbirlar o'tkazgan va o'z madaniy an'analari bilan o'zga xalqlarga ta'sir ko'rsatgan.

Rossiya imperiyasi va Sovet davrida XIX asrda Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgach, Buxoro yahudiylari soni ko'paygan, ularga Rossiyaning boshqa yahudiylari ham kelib qo'shilgan. Sobiq Sovet davrida esa ko'plab yahudiylar Isroil, AQSh va boshqa mamlakatlarga ko'chib ketgan.

Yahudiylilikda dinlararo muloqot masalasi tarixan murakkab va ko'p qirrali bo'lib, yahudiylar o'z diniy qadriyatlarini saqlashga harakat qilgan, shu bilan birga boshqa dinlar bilan muloqotda ham bo'lgan. Yahudiylilikda dinlararo muloqot, asosan, tinchlik va o'zaro hurmat asosida rivojlangan. Yahudiylar boshqa dinlar vakillari bilan aloqada bo'lganda, o'z diniy an'analari va e'tiqodlarini hurmat qilishni ta'kidlagan (J. S. Fishman., 1997., p. 65).

Xristianlik g'arbda, Rim imperiyasi hududida shakllanayotgan paytda, u sharqqa Suriya, Mesopotamiya va Eron orqali ham tarqala boshlagan.

Milodiy I - II asrlarda Nestoriya yo'nalishidagi keyinchalik "Sharqiy cherkov" deb atalgan missionerlar Eron hududiga kelib joylashgan. O'sha paytda Eron imperiyasining sharqiy viloyatlari - Baqtriya, Marg'iyona, So'g'd - Markaziy Osiyoning qadimiy qismi hisoblangan. Shu bois xristianlik bu yerga IV - V asrlarda yetib kelgan deb taxmin qilinadi.

Sosoniylar imperiyasi davrida III - VII asrlar Eron orqali Nestorian cherkovi kengaygan. Bu davrda Merv (Marv), Samarqand, Buxoro, Termiz va Baqtriya atrofida xristian jamoalari paydo bo'lgan. Arxeologik topilmalarda Markaziy Osiyoda o'sha davrga oid xristian ibodatxonalari, tosh xochlar, suryaniy yozuvlar topilgan. Hatto Xitoydagi Tang sulolasi davrida VII asr Nestorian xristianlar haqida ma'lumotlar bor; ular O'rta Osiyo orqali Xitoygacha borishgan. V-VI asrlarda Sosoniylar imperiyasining ba'zi hududlari Markaziy Osiyo nasroniyligni qabul qilgan davlatlardan biri bo'lgan. Xristianlik dunyoda eng keng tarqalgan diniy e'tiqod bo'lib, hozirda 2.5 milliard kishi unga e'tiqod qiladi. Xristianlikning asosiy g'oyasi Iso payg'ambarning ta'limotlarini yoyish bo'lgan.

Turk xoqonligi davrida VI - VIII asrlar ba'zi turkiy qabilalar orasida ham xristianlik asosan Nestorianlik shaklida tarqalgan. Uyg'urlar, kerayitlar, naymanlar kabi ba'zi turkiy-mo'g'ul qabilalar Nestorianlikni qabul qilganlar. Chingizxonning

ayrim ittifoqchi urug'lari Kerayitlar va Naymanlar xristian bo'lgan. Ularning diniy yetakchilari "maryohannan", "marsavva" deb atalgan.

VIII asrda Markaziy Osiyo islomlashganidan so'ng, xristian jamoalari asta-sekin kamayib borgan. Shunga qaramay, IX - X asrlarga qadar Merv, Samarqand va Taloqon hozirgi Afg'oniston atrofida Nestorian cherkovlari mavjud bo'lgan.

XIII asrda mo'g'ullar davrida XIII - XIV asrlar yana bir qisqa "xristianlik tiklanishi" kuzatilgan, chunki mo'g'ullarning ba'zi urug'lari Nestorian e'tiqodida bo'lgan. Ammo keyinchalik islomning kuchayishi bilan bu jamoalar butunlay yo'qolgan yoki boshqa dinlarga singib ketgan.

Xristianlik va islom kabi boshqa monoteistik dinlar bilan dinlararo muloqot, ayniqsa, tarixiy davrlarda diniy qarama-qarshiliklar va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq bo'lsa-da, zamonaviy davrda yahudiylar o'rtasida ko'plab tinchlik va hamkorlik tashabbuslari mavjud bo'lgan. Bunga misol tariqasida Yahudiylar va xristianlar o'rtasidagi uzil-kesil muloqotlar, shuningdek, yahudiylilik va islom o'rtasidagi o'zaro anglashuv va hurmatni mustahkamlashga qaratilgan dasturlar kiradi. Yahudiylilikda diniy bag'rikenglikni rivojlantirishga, birgalikda yashash va o'zaro hurmatni mustahkamlashga qaratilgan maqsadlar mavjud. Dinlararo muloqot, dinlarning

asosiy qadriyatlari va g'oyalarini tushunish va hurmat qilishni ta'minlashga yordam beradi (Gavrilov., 2000., p. 33).

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi yahudiy jamoalari o'zining eng gullab-yashnash davrini boshdan kechirdi. Sobiq Sovet Ittifoqining shakllanishi va islomiy yirik harakatlarning kuchayishi yahudiylarga ta'sir ko'rsatdi. 1920 - 1930 - yillarda yahudiylar o'z jamoalarini saqlab qolish uchun kurashgan bo'lsa-da, sobiq Sovet davrida, keyinchalik mustaqillik davrida yahudiylar soni kamaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda xususan Buxoro va Samarqandda yahudiylar jamoalari mavjud. Ularning soni esa ancha kichik (N. A. Gusev., 2001., p. 32).

Markaziy Osiyoga Xristianlik dinining kirib kelishi mitropolit Vladimir Ikim bilan bog'liq. U nafaqat Rossiyaning Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasining ma'naviy rahbaridir. U pravoslav cherkovining Markaziy Osiyodagi asoschisi hisoblanadi. Metropolitan Vladimir o'z ishini o'rgandi, diqqat bilan faktlarni to'pladi, farazlar yaratdi va xulosalar chiqardi. U "Qanotli otning buyuk parvozi" - Turkmaniston xalqlarining ma'naviy merosi haqida 2000-yil va "Turk Patriarxining avlodlari mamlakati" - ma'naviy merosi haqida, shuningdek Qirg'izistonning nasroniy jihatlari 2002- yilda O'rta Osiyoga xristianlikning kirib kelishi haqida kitoblar yozdi (Митрополит Ташкентский и Среднеазиатский Владимир (Иким)., 2001, p. 7).

Nasroniylik asosan Eron orqali O'rta Osiyoga kirib, bu hududlarda nasroniylarning jamoalari tashkil topgan. Samarqand va Buxoro kabi yirik shaharlar nasroniylikning tarqalish markazlari bo'lgan.

Tarixchilarining fikricha xristianlarning asosiy maqsadi Markaziy Osiyoda ham o'z dinlarini targ'ib qilish bo'lgan. Bu yerdagi karvonsaroylar missionerlarning jonli uchrashuvlari va munozaralar guvohi bo'lgan. Bu erda Xudoning kalomi va'z qilingan, jamiyatning turli qatlamlari tomonidan idrok etilgan.

XIX asrning 40-yillarida xristianlik Turkistonga qaytadan kirib keldi, asosan 1847-yilda Sirdaryo viloyatida birinchi pravoslav cherkov qurilgan, keyinchalik boshqa shaharlarda ham jamoalar tashkil etildi. XX asrga kelib, Turkistonda 306 ta pravoslav cherkovi mavjud edi. Xristianlikning turli oqimlari, jumladan, lyuteranlar, katoliklar va yahudiylar ham bu hududda yashagan (Абдуллаев Е. В., 1998, p. 36). O'sha davrda Toshkent shahrida turli millat va din vakillari yashar edi, lekin o'sha davrlarda ham dinlararo muloqot madaniyati yaxshi shakllangan. Chunki din bo'yicha nizolar chiqmagan. Toshkentda pravoslav diniga mansub bo'lgan kishilar va harbiylar orasida diniy ehtiyojlarni qondirish uchun cherkov qurilishi muhim hisoblangan.

Toshkentdagi birinchi pravoslav cherkovining qurilishi 1867-yilda Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda o'z hukmronligini mustahkamlashni boshlagan. Toshkentni o'z tasarrufiga olganidan so'ng, o'sha davrda Toshkentda xristianlar soni ko'paygan va ular uchun diniy xizmatlarni amalga oshirish zarurati bo'lgan. Toshkentda "Sankt-Peter" va "Pavel cherkovi" deb nomlangan birinchi pravoslav cherkovi 1871-yilda qurildi. Bu cherkovning qurilishi Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyoda xristian madaniyatining targ'iboti va aholi orasida pravoslavlikni yoyishga qaratilgan edi.

Xristianlikda dinlararo muloqot odatda tinchlik, o'zaro hurmat va bir-birini tushunishga asoslanadi. Xristianlar boshqa dinlar vakillari bilan aloqada bo'lishda o'z diniy e'tiqodlarini saqlashga harakat qiladilar, shu bilan birga boshqa dinlarni hurmat qilish va o'zaro muloqotni rivojlantirishga intiladilar. Xristianlik va yahudiylik, islom, buddaviylik, hindizm kabi boshqa dinlar bilan hamkorlikda tinchlik, barqarorlik va o'zaro hurmatni ta'minlash uchun ko'plab xalqaro tashabbuslar mavjud (Бичурин Н. Я., 1950).

Islom dini VII asrda Arabiston yarim orolidan tarqalib, Markaziy Osiyo hududiga yetib keldi. Islomning Markaziy Osiyoga tarqalishi jarayonida eng muhim rol ni arablar o'ynagan. 633-644 yillar davomida arablar Fors imperiyasini zabt etgan va bu orqali Markaziy Osiyo hududlarini bosib olishgan. 710-730 yillarda esa arablar xususan Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi musulmonlar, Xorazm, Samarqand, Buxoro kabi muhim shaharlarni ishg'ol qilib, Islomni keng tarqatishgan. Markaziy Osiyo o'zining tarixiy va madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi, chunki

bu hudud turli yirik dinlar va madaniyatlarning kesishgan nuqtasi bo'lgan. Zardushtiylilik, buddaviylilik, yahudiylik, nasroniylik va islomning bu mintaqaga kirib kelishi orqali Markaziy Osiyo dunyoning muhim diniy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Har bir din o'ziga xos tarzda mintaqaning ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'sir ko'rsatdi. Bu hududning tarixini shakllanishida muhim rol o'ynadi. Keyinchalik O'rta Osiyo ikki qismlarga bo'linadi (Jasur Najmiddinov., 2013, p. 240):

1) Mavorounnahr ikki daryo o'ralig'i;

2) Turkular yurtlari, ya'ni arablar hukmdorligiga bo'ysunmagan yerlar;

Iqlim va siyosiy holatga qarab, bu hududlarda islomlashuv jarayonlari har xil bo'lgan. Mavorounnahrda islom dinini yoyilishiga ikkita asosiy omil ta'sir qilgan.

Birinchi omil Abu Muslim 747-755- yillar qo'zg'oloni davriga qadar o'rta asrlarda islomdan avvalgi mahalliy hukmdorlar o'z holatlarini saqlab qolish uchun o'z hududlaridan arablar uchun soliqlar yig'ishni amalga oshirganlar.

Ikkinchi omil Umaviylar davrida 661-750-yillar arablarning mahalliy aholining islom dinini qabul qilishiga qarshi bo'lishi edi. Arablar islomni qabul qilganlarni "arab" sifatida tan olib, ular uchun imtiyozlar yaratganlar.

Murjiylik g'oyalari Mavorounnahrda keng tarqaldi. Mahalliy musulmonlar o'zlarining teng huquqliligini talab qilar edilar. Murjiylar, imon va amalning alohida ekanligini ta'kidlab, islomni qabul qilishni osonlashtirdilar. Mahalliy musulmonlarga yangi diniy jamiyatda teng huquqlilikni ta'minlashga yordam berdilar. Abu Muslimning 749-yildagi g'alabasi natijasida arab bo'lmagan musulmonlar arablar bilan teng huquqlilikka erishdi. Bu esa Murjiylik g'oyalarining ilmiy va diniy sohalarga olib keldi (Rahbarxon Murtazayeva., 2020, p. 56).

Mavorounnahr hududlarida islomning ilk davrlarida rationalizm keng tarqaldi. Bu hududda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon al-Beruniy va falsafa Abu Nasr al-Farobiy, Ibn Sino fanlari bilan birga rationalist diniy ilmlar ham rivojlandi. Mu'taziliylar, Ismoililar o'z ta'sir ko'rsatdilar. Bunga ko'ra, islom dunyosining markaziy hududlaridan an'anachilar ya'ni sunnat va hadis asosida yashash bo'yicha ta'limotlari kirib keldi. Ularning asosiy maqsadi islomni "bid'at" lardan tozalash edi.

Bu esa siyosiy sohada ham muvaffaqiyatlar keltirdi. Hadislarni yig'ish, tartibga solish va faqat ishonchli hadislarga asoslangan to'plamlarni yaratish ishlari amalga oshirildi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom ad-Dorimi kabi muhaddislar bu jarayonni rivojlantirdilar.

Natijada Mavorounnahrda Buxoroda muhaddislarning siyosiy va ijtimoiy mavqei oshdi.

Bu esa hanafiylar va yangi guruh ahl al-hadis o'rtasida qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Hanafiylik va Murjiylik o'rtasidagi aloqalar ilmiy izlanishlar bilan tasdiqlandi. Abu Hanifaning arab bo'lmagan musulmonlarga teng huquqlar berish haqidagi g'oyasi, ularning jamiyatda kamsitilinishiga qarshi kurashishga sabab bo'lgan. Keyinchalik bu Mavorounnahrda keng tarqaldi. Shuningdek hanafiylar o'z ta'limotlarini rivojlantirishga majbur bo'ldilar. Abu Abdulloh al-Buxoriy va boshqa muhaddislarning asarlari islom dinini sof holda kelajak avlodga yetkaziga xizmat qildi (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy., 1991, p. 52).

VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda davlat tuzumi bo'yicha islomning dastlabki davrlarida davlatdagi dindorlik prinsiplarining ustunligi, ijtimoiy hayotda esa ilmlar va diniy qoidalarni ishlab chiqish huquqi ulamolarga tegishli bo'lgan. Ulamolar davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatib, diniy siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Masalan Somoniylar davlati ulamolarni boshqaruv sohasida ham ishlatgan. Qoraxoniylar esa mahalliy ulamolar o'rniga chekka hududlardan keltirilgan olimlarni tayinlagan. Saljuqiylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar amaldorlarni o'rniga ulamolarni siyosatda yanada faol bo'lishga undagan. Ammo 1219-1221-yillardagi Mo'g'ullar istilosi natijasida yangi siyosiy tizim shakllandi. Bu tizimda O'rta Osiyo ko'chmanchilik an'analariga asoslandi va ulamolarning roli pasaydi. Natijada Buxoro va Samarqanddagi hanafiy ulomalarining ilmiy salohiyatining zaiflashishiga olib keldi. Yangi

sharoitda harizmatik shayxlar va chekka hududlik shayxlarning roli ortdi.

Musulmon dunyosida diniy ta'lim ustoz-shogird munosabatlariga asoslangan bo'lib, maktab-madrasa tizimi tashkil topishida homiylik muhim rol o'ynagan. Davlat yoki shaharning boylari tomonidan homiylik qilish tizimning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlagan. Uning bitiruvchilarga ijtimoiy vazifalar yukladi va diniy ta'lim tizimi jamiyatda strategik omilga aylandi.

Amir Temur o'z davrining e'tiqod va ma'naviyatning ahamiyatini chuqur tushungan. Amir Temur "Ahli sunna va jamoa" aqidasi sodiq bo'lib, diniy ekstremizmga qarshi chiqqan. U islomni erkin, diniy bag'rikenglik va mutaassiblikdan holi ravishda tushungan. O'z davrida mamlakatni adolat bilan millati, dini, irqidan qat'iy naraz teng huquqlik asosida boshqargan. Amir Temur din va davlatni o'zaro uzviy bog'lagan. Uning fikriga ko'ra diniy qadriyatlar va davlat siyosati o'rtasida mustahkam aloqalar bo'lishi kerak edi. U din ulamolari va ilmiy olimlarga ulkan hurmat ko'rsatgan va ularning maslahatlariga e'tibor bergan. Amir Temur uchun din va davlatning uyg'unligi eng muhim tamoyil bo'lgan. U islomning asosiy prinsiplari bilan boshqaruvni amalga oshirib, dinning ijtimoiy va siyosiy ta'sirini hayotga yo'naltirgan. Amir Temurning boshqaruvidagi asosiy maqsadlaridan biri mamlakatni ichki nizolardan holi, millatlararo va diniy aloqalarni rivojlantirish bo'lgan. U xalqni o'zaro hurmat va hamjihatlik asosida birlashtirishga intilgan (Xotamxon Xo'jaev va Maqsud Shayxov., 1980, p. 85).

XX asr boshlarida O'zbekistonda diniy hayot jamiyatni ma'naviy jihatdan ta'minlab kelgan, dinning mamlakat xayotida tarixiy va madaniy jihatidan o'rni beqiyos bo'lgan. Mustaqillikni qo'lga kiritgach, diniy qadriyatlar qayta tiklana boshladi. 1990-yilda Oliy Kengash sessiyasida Islom Karimov xalqning madaniy boyliklarini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlagan. Mustaqillikdan so'ng diniy ta'lim va hayotni boshqarish uchun yangi tashkilotlar, jumladan, 1992-yilda O'zbekiston musulmonlari idorasi tashkil etildi. Diniy idora davlatdan mustaqil faoliyat yuritib, diniy ishlarni boshqaradi va musulmon mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatadi. 1992-yildan boshlab Ramazon va Qurbon hayitlari dam olish kunlari deb e'lon qilindi, diniy adabiyotlar nashr etilidi va diniy ta'limni rivojlantirish uchun yangi universitetlar tashkil qilindi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni., 1992. 27-mart).

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda diniy hayotga tashqi ta'sirlar sezila boshladi. Yangi diniy tashkilotlar va jihodchilar tomonidan olib borilgan faoliyatlar muammolarni keltirib chiqardi. 1992-yilda mustaqil diniy ta'lim va faoliyatga cheklovlar qo'yildi. Ushbu davrda diniy tashkilotlarning tashqi omillar bilan aloqalari kuzatildi, shu bilan birga O'zbekiston o'z rivojlanish yo'lini tanladi.

O'zbekistonda e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash uchun qonunchilik takomillashtirildi. 1991-yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi qonun 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 18- moddasiga mos keladi. Bu modda har bir shaxsning o'z dini yoki e'tiqodi bo'yicha erkin tanlash va amalda bo'lish huquqini ta'minlaydi. Bunda bu erkinlik faqat jamoat tartibi, xavfsizligi va boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklariga zarar yetkazmaslik uchun cheklanishi mumkin.

Hozirgacha UNESCO tomonidan bag'rikenglikka doir 70 dan ortiq xalqaro hujjat, konvensiya, kelishuv va protokollar qabul qilingan. 1995-yil 16-noyabrda UNESCO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilindi (Mo'minov Abdulxay Rashidovich Tillabayev va Mirzatillo Alisherovich., 2013). Deklaratsiya irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dini kabi farqlarga qaramay bag'rikenglikni targ'ib qilish va inson huquqlari va erkinliklariga hurmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan. 1995-yil "Xalqaro bag'rikenglik" yili deb e'lon qilindi. 1998- yil 6-noyabrda Toshkentda UNESCO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasida "Tinchlik madaniyati va UNESCO a'zo davlatlaridagi faoliyati" Deklaratsiyasi qabul qilindi. 2000-yil "Xalqaro tinchlik madaniyati yili" va 2001-yil

"Xalqaro madaniyatlararo muloqot yili" deb e'lon qilindi. 1995- yilda "Dinlararo va madaniyatlararo muloqot" dasturini ham qabul qildi. Ushbu dastur diniy urf-odatlar va madaniy

qadriyatlarni yoritib, ularning dunyo madaniyatidagi o'rnini tushuntirishga qaratilgan. Dastur doirasida turli shaharlarda Toshkentda 2000-yilda dinlararo muloqot mavzusida xalqaro anjumanlar o'tkazildi (Rahbarxon Murtazayeva., 2020, p. 66).

2000-yil 13-15-sentabrda Toshkentda o'tkazilgan dinlararo muloqot UNESCO Kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xillikni muhokama qildi. Kongressda 40 ga yaqin davlatdan 80 dan ortiq turli din va konfessiyalarga mansub vakillar ishtirok etdi. Shundan so'ng, 18-sentabrda Buxoroda "Tasavvuf va dinlararo muloqot" mavzusida xalqaro simpozium o'tkazildi, bu yerda tasavvuf diniy bag'rikenglikni targ'ib qiluvchi va tinchlikka chaqiruvchi noyob Islom ta'limoti sifatida ta'riflandi.

2001-yil sentabrda Toshkentda Osiyo-Tinch okeani mintaqasining UNESCO "Bag'rikenglik tarmog'i" ning ikkinchi yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda bag'rikenglik tamoyillarining o'zbek xalqining urf-odatlar bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlandi. 2004-yil 15-martda Parijda, UNESCO qarorgohida, O'zbekiston va Fransiyada diniy bag'rikenglik mavzusida xalqaro anjuman tashkil etildi. 2006 – yilda UNESCO ning madaniyatlara va dinlararo muloqot yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan 15 ta kafedraning rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazilib, faollikni yanada rivojlantirishga oid bitim imzolandi (Nodir Karimov., 2022, p. 4). O'zbekistonning diniy bag'rikenglik bo'yicha an'anaviy o'lkasi sifatida, Islom faniga qo'shgan katta hissasi tan olindi. 2007-yilda Toshkent Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilindi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori., 2007).

O'zbekiston hududida shakllangan dinlar ta'limotida tinchlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik va insonparvarlik g'oyalari markaziy o'rinni egallaydi. Islom dinida "boshqalarga yaxshilik qilish", "fitnadan yiroq bo'lish" tamoyillari; nasroniylikda "yaqinini sevish"; buddizmda "zo'ravonliksiz yashash" kabi qarashlar bu g'oyaning umumiy asosini tashkil etadi.

Mustaqil O'zbekiston sharoitida ushbu qadriyatlar davlat siyosati darajasida ta'lim tizimida hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi davrda kelgusi avlodlarga sayyorani qanday qoldirish kerakligini o'ylash zarur. Mustahkam va farovonlikka faqat umumiy intilishlar, birgalikdagi harakatlar orqali erishish mumkin. O'zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik hozirda juda muhimdir. O'zbekistonda ko'p millatli madaniyat, o'ziga xos siyosiy tizim mavjud, deb ishonch bilan aytish mumkin. Qarorlar qabul qilishda yuzdan ortiq millat va elatning manfaatlarini e'tiborga oluvchi demokratik institutlar mavjud. Yangi O'zbekistonning davlat siyosati ham dinlararo bag'rikenglik, millatlararo tutuvlik tamoyillariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati kontsepsiyasi, vijdon erkinligi huquqini amalga oshirish, diniy sohadagi davlat siyosatini shakllantirish va O'zbekistonning dunyoviy davlat sifatidagi konstitutsiyaviy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Kontsepsiya, ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali O'zbekistonda demokratiya, tenglik, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlash maqsadida diniy bag'rikenglik va o'zaro totuvlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Diniy bag'rikenglik muhitining mustahkamlanishi mamlakatda millatlararo totuvlikni saqlash, barqaror taraqqiyotni ta'minlash hamda yosh avlodni sog'lom ma'naviyat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasida mamlakat dunyoviy, suveren, demokratik va ijtimoiy davlat ekanligi, hamda barcha fuqarolarga vijdon erkinligi kafolatlanganligi ta'kidlanadi. Har bir insonning o'z diniy e'tiqodini tanlash yoki tanlamaslik huquqi bor va diniy qarashlarni majburan singdirish taqiqlanadi. Diniy qadriyatlar, O'zbekistonning madaniyati va jamiyatining ma'naviy asoslarini shakllantirib, xalqni birlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Dunyoviy davlat, diniy e'tiqodlarni hurmat qilish va rivojlantirish uchun zarur ijtimoiy muhit yaratadi (<http://www.gazeta.uz>).

XULOSA

O'zbekistonning dinlar ta'limoti tinchlik va bag'rikenglikni shakllantirishda katta

ahamiyatga ega. Mamlakatda ko‘plab din vakillari birgalikda yashashadi, bu esa o‘zaro hurmat va hamjihatlikni talab qiladi. O‘zbekiston hukumati va diniy jamiyatlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar tinchlikni saqlash, diniy va etnik kelib chiqishdan qat’iy nazar, barcha fuqarolar o‘rtasida tenglikni ta’minlashga qaratilgan. Dinlararo va madaniy aloqalarni rivojlantirish, diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilish, o‘z navbatida, jamiyatda barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayon mamlakatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bag‘rikenglik, plyuralizm, o‘zaro hurmat, din va e’tiqodlar xilma-xilligi insonlarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga targ‘ib qiladi. Shuning uchun tinchlik va ijtimoiy barqarorlikni, xilma-xillikni hurmat qilish va mintaqaviy, milliy va mahalliy darajada tinchlik va o‘zaro tushunish muhitini yaratish uchun dinlararo va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda Dinshunoslik, dinlar tarixi saboqlari yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongini bag‘rikenglik ruhida shakllantirish, ularga odamiylik, vatanga sadoqatli bo‘lish fazilatlarini singdirishning eng ta’sirchan vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об объявлении дней Рамазан хайита и Курбан хайита днями отдыха» от 27 марта 1992 г. № ПФ-368. – Ташкент, 1992. – URL: <https://lex.uz/docs/-239369?otherlang=1>
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 марта 2007 г. № 51 «О мероприятиях, проводимых в связи с объявлением города Ташкента столицей исламской культуры». – Ташкент, 2007. – URL: <https://lex.uz/docs/-1545750>
3. Диний концепция: [электронный ресурс]. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/31/diniy-konsepsiya/>
4. Абу Абдуллох Мухаммад ибн Исмаил ал-Бухорий. Ал-Жомий ас-Сахих. Т. 1 / пер. с араб. Зокиржона Исмаила. – Ташкент: Қомуслар бош тахририяти, 1991. – С. 52.
5. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Т. 1. – Ташкент: Фан, 1968. – С. 252.
6. Старостин В. История буддизма в Узбекистане. – Ташкент, 1983. – С. 45.
7. Fishman J. S. Bukhara and Its Jews. – Tel Aviv, 1997. – P. 65.
8. Нажмиддинов Ж. Основы религиоведения. – Ташкент: Издательско-полиграфическое объединение Ташкентского исламского университета, 2013. – С. 240.
9. Шахинов Мухаммад Назарович. Mazdakism: A Historical and Philosophical Study. – Ташкент: Узбекистон, 1970. – P. 56.
10. Муминов Абдулхай Рашидович, Тиллабаев Мирзатилло Алишерович. Права человека: учебник. – 2-е изд. – Ташкент: Адолат, 2013. – С. 257.
11. Gusev N. A. The Jews of Central Asia: A Historical Perspective. – Ташкент, 2001. – P. 35.
12. Каримов Нодир. Узбекистан и ЮНЕСКО: история формирования культурных связей и перспективы развития. – Ташкент, 2022. – С. 4.
13. Муртазаева Рахбархон. Межнациональные отношения и толерантность в Узбекистане. – Ташкент: Go to Print, 2020. – С. 56.
14. Муртазаева Рахбархон. Межнациональные отношения и толерантность в Узбекистане. – Ташкент: Go to Print, 2020. – С. 66–67.
15. Гаврилов С. Ю. Еврейская история: Центральная Азия и Бухара. – Москва, 2000. – С. 33.
16. Киятани Т. С. Фаёзтепа: труды японского археолога Кюдзо Като. – Ташкент, 2007. – С. 56.
17. Jaffee V. The Jews in the Former Soviet Union and Central Asia. – London, 1993. – P. 63.
18. Ходжаев Хотамхон, Шайхов Максуд. Темур тузуклари. – Ташкент: Чулпон, 1980. – С. 85.

19. Абдуллаев Е. В. Очерки культуры доисламской Центральной Азии: религия, философия, право. – Ташкент, 1998. – С. 36.
20. Бичурин Н. Я. (иеромонах Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена: в 3 т. – М.; Л., 1950. – Т. 1. – С. 89.
21. Митрополит Ташкентский и Среднеазиатский Владимир (Иким). По стопам апостола Фомы: христианство в Центральной Азии. – Москва: М-Сканрус, 2011. – С. 7.
22. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On declaring Ramadan and Eid al-Adha as holidays” dated March 27, 1992, No. PF-368. – Tashkent, 1992. – URL: <https://lex.uz/docs/-239369?otherlang=1>
23. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 51 dated March 15, 2007 “On the events held in connection with the declaration of the city of Tashkent as the Capital of Islamic Culture”. – Tashkent, 2007. – URL: <https://lex.uz/docs/-1545750>
24. Diniy konsepsiya: [electronic resource]. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/31/diniy-konsepsiya/>
25. Abu Abdullah Muhammad ibn Ismail al-Bukhari. Al-Jami’ As-Sahih. Vol. 1 / translated from Arabic by Zakirjon Ismail. – Tashkent: Main Editorial Office of Encyclopedias, 1991. – P. 52.
26. Abu Rayhan Beruniy. Selected Works. Vol. 1. – Tashkent: Fan, 1968. – P. 252.
27. Starostin V. History of Buddhism in Uzbekistan. – Tashkent, 1983. – P. 45.
28. Fishman J. S. Bukhara and Its Jews. – Tel Aviv, 1997. – P. 65.
29. Najmiddinov J. Fundamentals of Religious Studies. – Tashkent: Publishing and Printing Association of Tashkent Islamic University, 2013. – P. 240.
30. Shaheenov M. N. Mazdakism: A Historical and Philosophical Study. – Tashkent: Uzbekistan, 1970. – P. 56.
31. Mominov A. R., Tillabayev M. A. Human Rights: Textbook. – 2nd ed. – Tashkent: Adolat, 2013. – P. 257.
32. Gusev N. A. The Jews of Central Asia: A Historical Perspective. – Tashkent, 2001. – P. 35.
33. Karimov N. Uzbekistan and UNESCO: the history of the formation of cultural ties and prospects for development. – Tashkent, 2022. – P. 4.
34. Murtazaeva R. Interethnic Relations and Tolerance in Uzbekistan. – Tashkent: Go to Print, 2020. – P. 56.
35. Murtazaeva R. Interethnic Relations and Tolerance in Uzbekistan. – Tashkent: Go to Print, 2020. – P. 66–67.
36. Gavrilov S. Y. Jewish History: Central Asia and Bukhara. – Moscow, 2000. – P. 33.
37. Kiyatani T. S. Fayoztepa: Works of Japanese Archaeologist Kyuzo Kato. – Tashkent, 2007. – P. 56.
38. Jaffee V. The Jews in the Former Soviet Union and Central Asia. – London, 1993. – P. 63.
39. Khojaev K., Shaykhov M. Temur’s Regulations. – Tashkent: Cholpon, 1980. – P. 85.
40. Абдуллаев Е. В. Очерки культуры доисламской Центральной Азии: религия, философия, право. – Ташкент, 1998. – С. 36.
41. Бичурин Н. Я. (иеромонах Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена: в 3 т. – М.; Л., 1950. – Т. 1. – С. 89.
42. Митрополит Ташкентский и Среднеазиатский Владимир (Иким). По стопам апостола Фомы: христианство в Центральной Азии. – Москва: М-Сканрус, 2011. – С. 7.